

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT O‘ZBEK TILI VA
ADABIYOTI UNIVERSITETI**

**O‘zbek tili va adabiyotini o‘qitish fakulteti
O‘zbek adabiyotini o‘qitish metodikasi kafedrası**

ADABIYOTSHUNOSLIK NAZARIYASI

I modul: Adabiyotshunoslik asoslari

O‘qituvchi sillabusi

Tuzuvchi: Nusratilla Jumaxo‘ja

Fan/modul kodi 300.2AN10M	O‘quv yili 2020-2021	Semestr I (kuzgi)	ECTS - Kreditlar 10	
2- semestrda ECTS – Kreditlar soni 10	Ta’lim tili o‘zbek		Haftadagi dars soatlari 4	
Fanning darajasi Yuqori darajadagi fan - 300	Fan/modul turi Umumkasbiy fanlar		Modul rahbari Nusratilla Jumaxo‘ja jumaxoja@navoiy-uni.uz	
Universitet korpusi 3-blok	Hafta kunlari Dushanba, juma		Vaqt Kunning birinchi yarmida	
	Fanning nomi	Auditoriya mashg‘ulotlari (soat)	Mustaqil ta’lim (soat)	Jami yuklama (soat)
	Adabiyotshunoslik asoslari	<i>1-semestr</i> 75	<i>1-semestr</i> 140	<i>1-semestr</i> 215
II semestr	Modul 1 Adabiyotning mohiyati	20	40	60
	Modul 2 Badiiy asar tarkibi	24	30	54
	Modul 3 Adabiy jarayon	31	70	101
	JAMI	75	140	215

Fanning tavsifi –“Adabiyotshunoslik nazariyasi asoslari” kursi o‘zbek tili va adabiyoti fakulteti birinchi bosqich talabalarining maktabda olgan adabiy-nazariy bilimlarini umumlashtirib, tizimga solgan holda adabiyot tarixidan ma’ruzalar tinglashga hozirlash maqsadini ko‘zlaydi. Adabiyotshunoslik ilmi badiiy adabiyotning rivojlanishi va badiiy did tarbiyasini shakllantirishi bilan ahamiyatlidir.

Fan mohiyati – ushbu fan badiiy adabiyotga taalluqli muammolarni atroflicha va chuqur ilmiy o‘rganish — adabiyotshunoslikning vazifasi; chiqargan ilmiy xulosa va umumlashmalari orqali badiiy adabiyot taraqqiyosi, badiiy tafakkur rivojiga xizmat qilish, badiiy did tarbiyasiga ta’sir o‘tkazish uning maqsadidir. Ushbu fan o‘zbek va jahon adabiyotshunoslik masalalarini, adabiyotining dolzarb muammolari, adabiy-madaniy muhit haqidagi qarashlar va ularga munosabat, o‘zbek mumtoz adabiyotiga kirish, mumtoz poetika, tarixiy-adabiy jarayonning taraqqiyot qonuniyatlari va ijtimoiy muhit bilan bog‘liqligi, milliy va jahon adabiyotining xos xususiyatlarini o‘rganadi.

Fanning natijasi –

Lug‘at ustida ishlay olish, eski o‘zbek yozuvi, arab, fors tillaridan xabardor bo‘lish va muhim xulosalar yasay olish, o‘zbek adabiyotining yuksak g‘oyaviy-badiiy va ilmiy-nazariy bilimlarini o‘rganishi uchun talabalar:

- o‘zbek adabiyoti konsepsiyasining o‘ziga xosligi;
- Adabiyotshunoslikning tarkibiy qismlarini, badiiy asar, badiiy asarda syujet va kompozitsiya, shakl va mazmun, mavzu va g‘oya, badiiy obraz va obrazlilik, badiiy tasvir va ifoda vositalari, she’riy sistemalar, adabiy tur va janrlar, badiiy asar tahlili metodlarini bilishi;
- nazariy ma’lumotlarni amalda qo‘llay olish, mustaqil mushohada qila olishi;
- badiiy asarni tahlil qilib, unga joziba baxsh etayotgan, undagi ifodaviylik va tasviriylikni, badiiy ta’sir kuchini aniqlay olishi.
- o‘zbek va jahon adabiyotshunosligining uzoq yillik taraqqiyot bosqichlari;
- umumadabiyotning yetakchi xususiyatlarini aniqlash;
- o‘zbek va jahon adabiyotining yetuk namoyandalari hayoti va ijodini tavsiflash;
- umumjahon adabiyotshunosligiining tarixiy-milliy, miliy-zamonaviy xususiyatlarini anglash;
- har bir ijodkorning adabiyotda tutgan o‘rnini aniqlash ko‘nikmalarga ega bo‘lishlari zarur.

Baholash me'zonlari –

A'lo (5) talaba mashg'ulotlarda juda faol, fanning nazariy asoslarini yaxshi biladi, xulosa va qarorlar qabul qila oladi, ijodiy fikrlaydi, bilimlarini amaliyotga qo'llay oladi;

– talaba ijodiy fikrlaydi, adabiy-badiiy asarlarni tahlil qila oladi, o'quv materialini mohiyatini tushunadi;

– talaba taqdim etilgan o'quv masalalarini yechish yo'llarini izlaydi, manbalar bilan ishlaydi va aytib bera oladi hamda tasavvurga ega bo'ladi;

Yaxshi (4) talaba o'rganilayotgan hodisalar aloqadorligini bilish hamda asarni tavsiflay olish ko'nikmasiga ega bo'lishi bilan birgalikda, qo'yilgan masalalarni o'rganilayotgan nazariy bilimlari asosida amaliyot bilan bog'lay oladi va mustaqil mushohada qila oladi;

– bilim va ko'nikmalar mazmunini tatbiq qila olish mahorati, bir ishdagi masalalarni yecha olish, yozib olish va eslab qolish faoliyatini amalga oshiradi, bilimlarni amaliyotga qo'llay oladi;

– talaba mashg'ulotlarga tayyorlangan, adabiyotga oid materiallarni biladi, mohiyatini tushunadi va tasavvurga ega;

Qoniqarli (3) talabaning eshitganlari, ularga berilgan namunalar, taqdim etilgan topshiriq va ko'rsatmalar asosida topshiriqlarni bajara oladi, mohiyatini tushunadi;

– talaba qator belgilar asosida ma'lum janrni farqlash bilan birgalikda unga ta'rif bera oladi va o'quv materialni tushuntirib bera oladi va tasavvurga ega;

Qoniqarsiz (2) talabaning eshitganlari, ularga berilgan namunalar, taqdim etilgan tavsiya va ko'rsatmalar asosida topshiriqlarni bajara oladi, mohiyatini tushunadi;

– talaba qator belgilar asosida ma'lum obyektни farqlash bilan birgalikda o'quv materialini tushuntirib bera oladi va tasavvurga ega.

Turi	Foizi	Saralash turi	Shakli
I-JN	40	27	Yozma topshiriq
I-ON	30	17	Og'zaki
YN	30	17	Test

Ta'lim berish va o'qitish metodlari – fanini o'zlashtirishda o'qitishning ilg'or va zamonaviy usullaridan foydalanish, yangi axborot-pedagogik texnologiyalarni tatbiq qilish muhim ahamiyatga egadir. Dasturda ko'rsatilgan mavzular ma'ruza, amaliy va seminar mashg'ulot shaklida olib boriladi, shuningdek, fanning dolzarb masalalari talabalarga mustaqil ta'lim sifatida o'zlashtirish uchun beriladi. Fanni o'zlashtirishda darslik, o'quv va uslubiy qo'llanmalar, ma'ruza matnlari, tarqatma materiallar, audio-video materiallar hamda texnik vositalardan foydalaniladi. Mashg'ulotlar rivojlantiruvchi,

muammoli, hamkorlik, o‘yin texnologiyalari va qator metodlari orqali tashkil etiladi.

- Aqliy hujum;
- Muammoli vaziyat;
- Keys kabilar.

Kalit so‘zlar – badiiy to‘qima, etnografiya, folklor, totemizm, fetishizm, animizm, mif, afsona, rivoyat, naql, janr, lirika, marosim folklor, marosim folklori, yomg‘ir yog‘dirish marosimlari, yozgi marosimlar folklori, an‘ana, doston, epos, xalq baxshilari, dostonchilik maktablari, motiv, mubolag‘a, alplik tizimi, epos va etnos, konflikt, mubolag‘a

Mavzular ro‘yxati –

1. Ma‘ruza mashg‘ulotlari

“Adabiyotshunoslik asoslari” fani bo‘yicha ma‘ruza mashg‘ulotlari taqsimoti:

I semestr

№	Mavzular	Soat
I	Adabiyotning mohiyati	
1.	Kirish. Adabiyotshunoslik nazariyasi fan sifatida	2
2.	Adabiyot va mafkura	2
3	Badiiy obraz va obrazlilik	2
4.	Badiiy asarda shakl va mazmun	2
II	Badiiy asar tarkibi	
5.	Syujet va kompozitsiya	2
6.	Epik asar kompozitsiyasi	2
7.	Lirik asar kompozitsiyasi	2
8.	Dramatik asar kompozitsiyasi	2
III	Adabiy jarayon	
9.	Badiiy asar tili	2
10.	Badiiy tasvir va ifoda vositalari	2
11.	Mumtoz badiiy san‘atlar	2
12.	She‘r tizimlari: aruz va barmoq	2
13.	Adabiy tur va janrlar	2

14.	Ijodiy metod va badiiy uslub	2
15.	Badiiy asar tahlili	2
	Jami	30

2. Seminar mashg'ulotlar:

I semestr

№	Mavzular	Soat
1.	Badiiy adabiyotning mohiyati	2
2.	Adabiyot va mafkura	2
3.	Badiiy adabiyot san'at turi sifatida	2
4.	Badiiy tafakkur va obrazlilik	2
5.	Adabiy asar haqida	2
6.	Badiiy asarning dunyoga kelish qonuniyatlari	2
7.	Badiiy asarda shakl	2
8.	Syujet	2
9.	Konflikt	2
10.	Kompozitsiya	2
11.	G'azal kompozitsiyasi	2
12.	Badiiy asar tili	2
13.	Badiiy tasvir va ifoda vositalari	2
14.	Adib ijodxonasi va adabiy tahrir	2
15.	Mumtoz she'riy san'atlar	2
16.	Janr tushunchasi	2
17.	Zamonaviy adabiyot janrlari	2
18.	Mumtoz adabiyot janrlari	2
19.	Adabiy an'ana va novatorlik tushunchasi	2
20.	Adabiy muhit tushunchasi	2
21.	Metod va uslub	2
22.	Adabiy oqim va yo'nalishlar	2
23.	Adabiy jarayon tushunchasi	1
JAMI		45

Fan bo'yicha savollar to'plami –

1. Adabiyotshunoslik deganda nimani tushundingiz ? Uning maqsad va vazifalari nimadan iborat ekan ? Shu savollarga javoban fikringizni jamlang va tezis shaklida bayon eting.
 2. Adabiyotshunoslik fanining tarkibiy qismlari nimalardan iborat ekan ?
 3. Adabiyotshunoslikning asosiy tarkibiy qismlari orasidagi o'zaro bog'liqlik, uzviy aloqani tushuntirib bering.
 4. Tanqidchi deganda kimni tushunasiz ? Xalq tilidagi "tanqid qilmoq" fe'li, masalan, "birovni tanqid qilmoq" tushunchasi bilan "badiiy asarni tanqid qilmoq" iborasi orasida qanday umumiylik va farq bor ?
 5. "Matnshunoslik faoliyati adabiyotshunoslik, tilshunoslik va tarix fanlari kesishgan nuqtada kechadi" degan fikrni qanday tushundingiz? Adabiyotshunoslikning boshqa tarkibiy qismlarini matnshunosliksiz tasavvur etib bo'ladimi ?
 6. "Badiiy obraz badiiy adabiyot va san'atning tafakkur shakli" deyilishining boisini tushuntirib bering. Obrazli tafakkur va tushunchalar asosidagi tafakkurni bir-biriga qiyoslagan holda amalga oshiring. "Badiiy obrazning konkretligi" deganda nimani tushunasiz ?
 7. Badiiy adabiyot individuallashtirish orqali umumlashtirishga intilishini o'z misolingizda tushuntiring.
 8. Badiiy obrazning ko'pma'nolilik kasb etishi nimalarga bog'liq deb bilasiz ?
 9. Badiiy adabiyotda inson obrazining markaziy o'rin tutishi nimaga bog'liq? Inson obrazini yaratish vositalari qaysilar ? Ularni muayyan bir misol orqali tushuntirib bering.
 10. Badiiy obrazlar tasnifi qaysi jihatlardan amalga oshiriladi ? Badiiy obraz turlarining har biriga misollar keltiring.
- Savol va topshiriqlar:
11. "Shakl – predmetning yashash usuli" deganda nimani tushundingiz ? Ana shu tushunchaga tabiat yoki inson hayotidan mustaqil misol tanlang va bayon eting.
 12. Ma'ruza matnidagi "Har bir mazmun o'ziga xos shaklda yashaydi" kabi falsafiy-adabiy qoidalarni daftaringizga ko'chirib yozing, yodda saqlang.
 13. "Shakl mohiyatlidir. Mohiyat shakllangandir". Bu qoidani yodlang va sharhlang. Badiiy asarlardan misollar keltirib, maqola yozing.
 14. Badiiy asarda mazmunning shaklga nisbatan etakchilik roli nimada ?
 15. Mazmunning o'zgarishi shaklga qanday ta'sir etadi ? Umuman, o'zgaruvchanlikda mazmun va shakl mutanosibligini qanday tushundingiz ?
 16. Shaklning nisbiy mustaqilligini badiiy asarlar misolida tushuntirib berishga harakat qiling.
 17. "Badiiy asar – mazmun va shaklning yaxlit quymasi" degan ta'rifni qanday tushundingiz ? Batafsil izohlab bering.

18. Xarakterning mazmun va shakl munosabatlariga nisbatan mavqeini tushuntirib bering.
19. Badiiy tilning mazmun va shaklga munosabati, mavqei qanday ?
20. Badiiy asar shakli deganda, qaysi adabiy unsurlar nazarda tutiladi ?
21. Syujet nima ? Misollar bilan tushuntirib bering.
22. Konflikt nima ? Badiiy asarda konfliktning qanday turlari va yo‘nalishlari bo‘lishi mumkin ?
23. Nima sababdan konfliktni syujetning o‘zagi deb aytamiz ? Izohlang.
24. “O‘tgan kunlar” romanida konfliktning qanday yo‘nalishlari bor ?
25. Syujetning tarkibiy qismlari nimalardan iborat ?
26. Ekspozitsiya nima ? U badiiy asarning qanday o‘rinlarida qo‘llanishi mumkin ?
27. “O‘tgan kunlar” romanining ekspozitsiyasi nimadan iboratligini bayon eting.
28. Tugun nima ? “O‘tgan kunlar” romanining tugunini tushuntirib bering.
29. Voqealar rivoji nima ? U badiiy asarda qanday o‘rin tutadi ?
30. Kulminatsiya nima ? “O‘tgan kunlar” romanining kulminatsion nuqtasidagi voqealarni tasvirlab bering.
31. Yechim nima ? “O‘tgan kunlar” romanining echimi nimadan iborat ?
32. L. Tolstoy “Anna Karenina” romanining echimi haqida qanday fikr bildirgan ?
33. Syujet bilan xarakterning o‘zaro aloqadorligi nimadan iborat ?
34. Syujetning sharoit mantiqiga bog‘liqligi nimada ?
35. Badiiy asoslash va syujet haqida mulohaza yuriting.
36. Badiiy detal nima va uning syujetga nima aloqasi bor ?
37. Fabula nima ? Uning syujetdan farqli tomoni nimada ?
38. Badiiy asar kompozitsiyasi deganda nimani tushundingiz ? Batafsil sharhlang.
39. Tilning badiiy asar komponentlari orasidagi alohida o‘rni nimadan iborat ?
40. Badiiy asar tilining jonli til va adabiy til bilan munosabatlari qanday ?
41. Badiiy asar tilida muallif nutqi qanday xususiyatlarga ega ?
42. Personaj nutqi badiiy asar tilida qanday xususiyatlarga ega ?
43. Adabiy asar tilida emotsionallikning qanday ahamiyati bor ?
44. Badiiy asar tilidagi serqatlamlilik deganda nimani tushunasiz ?
45. Badiiy asar obrazlilikiga adabiy asar tilining qanday o‘rni bor ?
46. Yozuvchining sarlavha yaratish mahoratida tilning ahamiyati qanday ?
47. Badiiy asar tilida istorizmlarning xizmati nimadan iborat ?
48. Badiiy asar tilida arxaizmlarning ahamiyati nimadan iborat ?
49. “Xalq tili” tushunchasini sharhlang, yozuvchi undan qanday foydalanadi ?
50. Badiiy til mahoratida dialog qanday o‘rin tutadi ?
51. Badiiy til mahoratida monologning xizmati nimadan iborat ?
52. Lakonizm nima va yozuvchi unga qanday erishishi mumkin ?
53. Badiiy til va tasvir vositalarining adabiy asar tilidagi ahamiyatini batafsil sharhlab maqola yozing.

54. Adabiy asarlar qanday tur va janrlarga bo‘linadi ?
55. Epos deganda nimani tushunasiz ?
56. Qanday qadimiy epik asarlarni o‘qigansiz ?
57. Adabiyotlar ro‘yxatida berilgan topshiriqlarni bajaring, xususan, V.G.Belinskiyning “Poeziyaning xil va turlarga bo‘linishi” haqidagi asarini topib mustaqil mutolaa eting va konspektlashtirib oling.
58. Hozirgi adabiy jarayonda epik turning qaysi janrlarida barakali ijod etilmoqda. O‘zingiz o‘qigan asarlar asosida fikr yuriting.
59. Lirikaning qanday janrlarida ko‘proq asar o‘qigansiz ?
59. Nechta lirik asarni yoddan bilasiz ?
60. Qanday tragediyalarni o‘qigansiz yo tomosha qilgansiz ?
61. Sahnada qaysi dramatik asarlarni ko‘rgansiz? Ulardan qanoatlanganmisiz?
62. Komediya janrining mohiyati nima ? Qanday komediyalarni bilasiz ?
63. Badiiy tafakkur tiplari deganda nimani tushundingiz ?
64. Qanday badiiy tafakkur tiplarini bilasiz ?
65. Ijodiy metod tushunchasi haqida ma’lumot bering.
66. Jahon adabiyotida ijodiy metodning qanday turlari mavjud ?
67. Klassitsizm ijodiy metodining asosiy xususiyatlari nimadan iborat ?
68. Romantizm ijodiy metodining o‘zbek adabiyotiga xos xususiyatlarini misollar bilan sharhlab bering.
69. Realizmning mohiyati nima va uning jahon adabiyotidagi tutgan o‘rni qanday ?
70. Tanqidiy realizm nima, uning o‘zbek adabiyotiga tatbiqi mavjudmi ?
71. Jahon adabiyoti uchun universal ijodiy metodlar qaysilar ?
72. Badiiy uslubni o‘zbek adabiyoti misolida tushuntirib bering.

Foydalaniladigan adabiyotlar ro‘yxati

Asosiy adabiyotlar:

1. Adabiyot nazariyasi. 2 tomlik tadqiqot. 1-tom. “FAN”, T., 1978.
2. Adabiyot nazariyasi. 2 tomlik tadqiqot. 2-tom. “FAN”, T., 1979.
3. T. Boboyev. Adabiyotshunoslik asoslari. –T.: O‘zbekiston, 2002.
4. I. Sulton. Adabiyot nazariyasi. – T.: O‘qituvchi, 2005.
5. D. Quronov. Adabiyotshunoslikka kirish. – T.: Fan, 2007.
6. A. Ulug‘ov. Adabiyotshunoslik nazariyasi. “G’. G‘ulom...”, T., 2018.
7. D. Quronov. Adabiyot nazariyasi asoslari. “Navoyi universiteti”, T., 2018.

Qo‘shimcha adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi” to‘g‘risidagi Farmoni (“Xalq so‘zi” gazetasi, 2017-yil, 8-fevral)
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Oliy ta’lim tizimini yanada

rivojlantirish chora tadbirlari” to‘g‘risidagi qarori (“Xalq so‘zi” gazetasi, 2017-yil, 12-aprel).

3. N.Jumaxo‘ja. Navoiy g‘azaliyoti talqinlari. “O‘zbekiston”, T., 2018.
4. Normatov U. Nafosat gurunglari. – T., Muharrir, 2010.
5. Sharq mumtoz poetikasi: manba va talqinlar. – T., O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi davlat ilmiy nashriyoti, 2008.
6. Ulug‘ov A. Adabiyotshunoslikka kirish. – T.: Universitet, 2005.
7. Sharafiddinov O. Ijodni anglash baxti. – T.: Sharq, 2004.
8. Jahon adiblari adabiyot haqida. –T., Ma‘naviyat, 2010.
9. Q. Yo‘ldosh, M. Yo‘ldosh. Badiiy tahlil asoslari. “Kamalak”,T., 2016.
10. Quronov D., Rahmonov B. G‘arb adabiy-tanqidiy tafakkuri tarixi ocherklari. – Toshkent: Fan, 2008.
11. N.Eshonqul. Ijod falsafasi. –T.: Akademnashr, 2018.
12. N. Hotamov, B. Sarimsoqov. Adabiyotshunoslik terminlarining ruscha-o‘zbekcha izohli lug‘ati. “O‘qituvchi”, T., 1979.
13. D.Quronov, Z.Mamajonov, M.Sheraliyeva. Adabiyotshunoslik lug‘ati. “Akademnashr”, T.,2013/

Internet saytlari:

1. <http://natlib.uz> –Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston Milliy kutubxonasi sayti
2. <http://ensiklopediya.uz> – O‘zbekiston Milliy ensiklopediyasi sayti
3. <http://ziyouz.uz> – O‘zbek va jahon adabiyoti portali
4. <http://ziyonet.uz> –O‘zbekiston milliy ta‘lim portali
5. <http://kitob.uz/> - Respublika bolalar kutubxonasi
6. <http://www.kamolot.uz> – “Kamolot” yoshlar ijtimoiy sayti
7. <http://www.infolib.uz> – Respublika Axborot kutubxona markazi
8. <http://referatlar.uz> –Referatlar, testlar, kitoblar va media ta‘lim sayti
9. <http://book.uz> – Elektron adabiyotlar kutubxonasi

O‘qituvchining kontakt ma‘lumotlari

+99891 166 31 38

(Nusratilla Jumaxo‘ja)

jumaxoja@navoiy-uni.uz

O‘qituvchi bilan haftalik konsultatsiya vaqti

Chorshanba soat 16:00